

Shaxslarda Axloqiy-Irodaviy Sifatlarni Shakllantirish Bo‘Yicha Xorij Tajribasi

Zohirov Nodirbek Ulug‘bekovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti, “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi katta o‘qituvchisi, leytenant

Annotation: Studying the semantic field of “ma’naviyat” and its descriptive meanings in different dictionaries written from 1981 till the present time has been analysed in this article. The works carried out on the similar topics are also discussed and their differences are analyzed.

Keywords: Lexicographic analysis, dictionary meaning, descriptive dictionary, spirituality, lexical units, semantic signs.

Dunyo mamlakatlaridagi turli xil tuzumlarga nisbatan ichki tahdidlar, davlatlararo nizolar, diplomatik aloqalarning notekis o‘rnatilganligi, shuningdek, ekstremal(favqulodda) vaziyatlarning xalqqa, osoyishta millat vakillariga ta’sir ko‘rsatishi, o‘z navbatida, barcha jahon davlatlarini sarosimaga solmoqda. Vatanimiz posbonlarini ekstremal(favqulodda) holatlarda operativ qaror qabul qiladigan, har qanday vaziyatda milliy taassublikni tanlaydigan hamda ichki ma’naviy-ruhini shakllantirib, ularni har qanday sohani mukammal biladigan qilib, tarbiyalash mamlakatning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Unga ko‘ra, mamlakatlarda yuzaga kelgan ichki hamda davlatlararo munosabatlarda harbiy xizmatchilardagi jasorat tuyg‘usining po‘rtanadek otilib chiqishi, o‘z xalqining tinchligi, vatanining osoyishtaligi, hamda oilasining farovonligi uchun zarurat tug‘ilsa, jonini kamARBASTA aylab, tarix zarvaraqlariga zarhal harflar bilan iz qoldirishdek ulkan sharafli hamda savobli ishni qilishlik masalalari kundan-kunga kamayib bormoqda, desak, adashmagan bo‘lamiz.

Ioda - insonning o‘z faoliyati va psixik jarayonlarini o‘zi boshqara olishida namoyon bo‘ladigan qobiliyati. Inson irodaviy harakatini amalga oshirar ekan, o‘ziga hukmon ehtiyoj va xohishlariga qarshi turadi: Ioda uchun “men xohlayman” degan kechinma emas, balki “kerak”, “bajarishim shart” degan kechinma xosdir. Inson faoliyatining barcha turlari va har qanday mehnat kishidan mustahkam irodani talab qiladi. Ioda mehnat faoliyati davomida shakllanadi va rivojlanib boradi. Iordaning ongdagi faoliyati harakat maqsadini belgilashda, maqsadga erishish vositalari va yo‘l-yo‘riqlarini oldindan aniqlab, ma’lum qarorga kelishda hamda bu qarorni ijro etishda namoyon bo‘ladi. Inson irodasining qay darajada rivojlanganligi maqsadni qanday ro‘yobga chiqarishida ko‘rinadi. Irodaviy harakat jarayonlarida kishi ichki va tashqi to‘sqliarga duch keladi. Ichki to‘sqlilar kishining o‘ziga, uning ichki mayllariga xos holat. Kishining ichki mayllarini yenga olishi, o‘zini boshqarish va o‘z ustidan hukmonlik qila bilish layoqati ichki ioda, deb ataladi. Tashqi to‘sqlilar tevarak-atrofdagi vogelikda uchraydi. Kishining ana shunday tashqi to‘sqliarni yenga olish layoqati tashqi ioda, deb ataladi. Irodaviy faoliyatda tashqi to‘sqliarni yengish (tashqi ioda) ichki to‘sqlilar (ichki ioda) ni yengish bilan uzviy bog‘liq. Iordaningning muhim sifatlari: o‘zini tuta bilish, dadillik, qat’iylik, chidam va toqat, prinsipiallik, mustaqillik va boshqalar. Ioda kuchi shu sifatlarning qay darajada namoyon bo‘lishiga qarab belgilanadi. Kishi yuksak g‘oyalarga asoslangan ongli qat’iyat va sabot bilan o‘z harakati yo‘lidagi to‘sqliarni yengar ekan, u kuchli ioda egasi hisoblanadi. Ioda kishining harakteri bilan uzviy bog‘liq, uning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi

Psixologik yordam tamoyillari (axloqiy) - Ko‘pgina kasblarda bo‘lgani kabi, psixolog faoliyatida ham ularga psixologik yordam ko‘rsatishda ba’zi printsiplar va talablar mavjud bo‘lib, ularni amalga oshirish majburiyidir. Turli mamlakatlarda va psixologik jamoalarda professional psixolog faoliyati uchun turli xil axloqiy meyorlarning mavjudligi psixologik amaliyotda yuzaga keladigan axloqiy muammolarga

aniq va oddiy javoblarning yo‘qligi bilan bog‘liq. Ushbu tamoyillar psixologik yordam ko‘rsatish nafaqat samaraliroq va mazmunli, balki ijtimoiy jihatdan maqbul bo‘lishini ta’minlash uchun zarurdir. Ushbu, mavzu bo‘yicha ko‘plab asarlarda turli xil qiyin vaziyatlar, xususan, maslahatchi uchrashuv paytida mijozи g‘ayriijtimoiy harakatni rejalashtirayotganini yoki sodir etganligini bilib qolsa, uning tanasida kaltaklash yoki boshqa zo‘ravonlik alomatlarini ko‘rsa, o‘zini qanday tutishi kerakligi haqida gap boradi. bola, agar ota-onalar o‘zlarining yashirin o‘smir farzandlari haqida, shuningdek, boshqalar haqida biror narsa bilishni xohlasalar. Ba’zi mamlakatlarda, masalan, AQSHda, kasbiy tamoyillar va talablarga rioya qilmaslik psixolog diplomidan mahrum bo‘lishiga, amaliyat bilan shug‘ullanish va uning professional xizmatlarini taklif qilish huquqiga va hokazolarga olib kelishi mumkin.

Iroda kuchi jasorat deb ataladigan dadillikda ayniqsa yaqqol ifodalananadi. Jasorat kishining shunday holatiki, bunda kishi tez qarorga keladi va uni bajarishga ahd qiladi. Jasorat kishining boshqa kishilarga emas, balki o‘ziga bergen mas’uliyatlilagini anglatadi. Kishi axloqiy burchning talabiga ko‘ra, buyuk maqsadga erishish uchun bir zumda hayot bilan o‘limdan birini tanlab olish bunday jasorat iroda kuchi ekanligin ko‘rsatadi. Kishi irodasining kuchi va qat’iyati xarakterining irodaga bog‘liq bo‘lgan qaysi xislatlarida ifodalangan bo‘lsa, o‘sha xislatlar eng yorqin xislatlardan hisoblanadi. Bu xislatlar har bir kishining xarakterida bir qadar namoyon bo‘ladi. Ammo hamma kishilarn va har qanday odamning irodasi kuchli xarakteri kuchli deb bo‘lmayi, balki shu sifatlari bilan boshqa kishilardan aralib turgan odamlargna iroda kuchli, xarakteri qat’iy deb ataladi. Iroda kuchi qabul qilingan qarorni o‘z vaqtida bajarishda ko‘rinadi. Shuning uchun qarorni bajarmaslik yoki uning bajarish muddatini doimo paysalga solish boshlangan ishni oxiriga yetkaza olmaslik iordaning kuchsizligi alomatidir. Lekin qabul qilingan qarorni bajargan har qanday qilingan ish-harakat iordaning kuchli ekanligidan darak beravermaydi. Iroda kuchi asosan irodaviy harakatlar yordami bilan yengillashganiga va shu yo‘l bilan qanday natijalarga erishishigagina qarab aniqlanadi. Irodaviy zo‘r berish vositasida bartaraf qilinadigan qarshilik va qiyinchiliklar darajasi va xarakteri iroda kuchining ob’ektiv ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Iroda kuchi iordaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko‘rinadi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarni his qilishda va intilishga urinishda ko‘rinadi.

Shaxsda irodaviy sifatlarning ya’ni, iroda kuchi, mustaqilligi, qat’iyatliligi kabi ayrim sifatlari turlicha namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra har bir kishida iordaning ayrim sifatlari umr bo‘yi mustahkamlanib, oqibatda shu odamning xususiy sifatlari (ya’ni doimiy xislatlari) bo‘lib qolishi mumkin. Shuning uchun ham shaxsning bunday sifatlari uning o‘ziga xos xususiyatlari deb ataladi. Har bir kishidagi mazkur sifatlarning turlicha namoyon bo‘lishi shu kishi xarakterining xislati bo‘lavermaydi. Chunki, ayrim hollarda hatto, tasodifiy ravishda kishi kuchli iroda ko‘rsatishi mumkin, ayrim hollarda mazkur kishining irodasi umuman kuchli irodalilik shu kishi xarakterining xislati ekanligini ifodalamaydi. Bunday hollarda kishining irodasi kuchli deb aytish uchun uning iroda kuchi bir marta emas balki, bir necha marotaba namoyon bo‘lishini bilmoq kerak.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlasak, maqsadga muvofiq bo‘lardiki, iroda bu insonning hayotiy qiyinchiliklarni yengib o‘tishi, maqsadga erishish qobiliyatidir. Xususan, u xarakter, maqsadlilik, qat’iyatlilik, matonatlilik, jasoratlilik kabi fazilatlarda namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” VM 1059 son Qarori. - T.: - 2019 yil 31 dekabr.
2. Абдурахимов, К. А. (2015). Психологические особенности интеллектуальной деятельности. Проблемы современного образования, (3), 41-47.
3. Abdulkhalilovich, A. K. (2021). Family as a Subject of Psychocorrective Influence. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 656-668.
4. Abduraximov, Q. A. (2015). Psychological peculiarity of intellectual activity. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 3(2), 54-60.

Formation and Development of Pedagogical Creativity

International Scientific - Practical Conference

<https://www.openconference.us/index.php/pedagogy>

5. Bekmirov T.R. Shaxsning emotsional irodaviy holatlari. O'quv uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2022. – 68 b

